

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ.....	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI.....	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yumurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'ozdiyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLİYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кизи	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLİYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING ISTIQBOLLARI.....	438
Djuraeva Didora Sobirjonovna	
ZAMONAVIY MOLIVAVIY INFRATUZILMANING INSTITUSIONAL ASOSLARI: TO'LOV TIZIMLARI NAZARIYASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	441
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI MENEJMENT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	449
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
CORPORATE GOVERNANCE, FDI, AND URBANIZATION IN THE GREEN ECONOMIC TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN	454
Ablaeva Valentina	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND MICRO-ENTERPRISE DEVELOPMENT	460
Dilafuz Kuchkorova	
LEGIRLANGAN PO'LATLARDAN TAYYORLANGAN PROKATLASH JO'VALARINI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH UCHUN TERMIK PUXTALASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	466
Saydumarov Botir Muradovich, Berdiyev Darob Murotovich, Tashmatov Ravshan Qobilovich	
SHAMOL TURBINASINING IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATORI O'TKINCHI JARAYONLARINING TAHLILI	471
Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Yunusov Obidxon Abdivait o'g'li, Jo'rayev Doston Majid o'g'li	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	479
Babaxanova Dildora Rustamovna	
RAQOBAT USTUNLIGIGA ERISHISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	485
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARI, ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTLARI VA AUDITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	490
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	494
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	499
Sayfudinova Djamila Badridinovna	
AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI	503
Xamroyev Anvar Ashurovich	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI HAMDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	508
A.A.Abduvoxidov	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	518
Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich	
PERFORMANCE APPRAISAL FAIRNESS AND EMPLOYEE OUTCOMES IN UZBEKISTAN'S EDUCATIONAL INSTITUTIONS: A QUANTITATIVE INVESTIGATION	525
Farida Nishanova	
SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMLARINING ISHLAB CHIQARISH JARAYONIGA TA'SIRI	535
O'.M. Baytanov	



SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMLARINING ISHLAB CHIQUVISH JARAYONIGA TA'SIRI

O'M. Baytanov

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti v.b., PhD

Email: baytanovuralboy@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarining ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro standartlar asosida joriy etilgan sifat boshqaruvi tizimlarining mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi hamda korxonalarning raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish natijasida O'zbekiston sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sifat boshqaruvi tizimi, oziq-ovqat sanoati, ISO 9001, ishlab chiqarish samaradorligi, sanoat iqtisodiyoti, mahsulot sifati.

Abstract. This article examines the impact of quality management systems on production processes in food industry enterprises from an economic perspective. The study analyzed the effects of internationally standardized quality management systems on product quality, production efficiency, and enterprise competitiveness. Additionally, based on statistical data, the analysis considers how implementing quality management systems in the food industry contributes to the growth of industrial production in Uzbekistan.

Keywords: quality management system, food industry, ISO 9001, production efficiency, industrial economics, product quality.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние систем управления качеством на производственные процессы в предприятиях пищевой промышленности с экономической точки зрения. В ходе исследования изучалось влияние внедрённых на основе международных стандартов систем управления качеством на качество продукции, производственную эффективность и конкурентоспособность предприятий. Кроме того, на основе статистических данных анализируется влияние внедрения систем управления качеством в пищевой промышленности на рост объёма промышленного производства в Узбекистане.

Ключевые слова: система управления качеством, пищевая промышленность, ISO 9001, производственная эффективность, экономика промышленности, качество продукции.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish darajasiga bog'liq. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va xavfsizligi aholining turmush darajasi hamda milliy iqtisodiyot barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va mahsulot sifati ta'minlashda sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sifat boshqaruvi tizimi korxona faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlarini tizimli tashkil etish, mahsulot sifati barqaror nazorat qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda eng keng qo'llaniladigan standartlardan biri bo'lgan ISO 9001 Quality Management System korxonalarda sifatni boshqarishning universal modelini taqdim etadi. Ushbu standart ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi [1]. Mazkur standart International Organization for Standardization tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sanoat korxonalarida keng qo'llanilmoqda.



ISO 9001 standarti sifat menejmenti tizimiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, ISO standartlari asosida ishlovchi korxonalarda brak mahsulotlar ulushi kamayadi, ishlab chiqarish intizomi mustahkamlanadi va jarayonlar tartibli bo'ladi [2].

Oziq-ovqat sanoatida mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb bo'lib, bu sohada sifat boshqaruvi tizimlari bilan bir qatorda oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari ham joriy etilmoqda. Jumladan, HACCP Food Safety Management System tizimi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va nazorat qilishga xizmat qiladi [3].

So'nggi yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga xalqaro standartlarni joriy etish hamda mahsulot sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat sanoat siyosatida oziq-ovqat sanoati ustuvor tarmoqlardan biri hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi barqaror o'sib bormoqda. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tomonidan e'lon qilinadigan statistik ma'lumotlarda aks etadi [4]. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarining ishlab chiqarish jarayoniga ta'sirini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar sifat boshqaruvi tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish hamda korxonalar iqtisodiy samaradorligini yaxshilashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Terziovski tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi [5]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ISO 9001 standartlarini joriy etgan korxonalarda jarayonlar samaradorligi yaxshilanib, ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan hamda korxona raqobatbardoshligi oshgan.

Oziq-ovqat sanoatida sifat boshqaruvi tizimlari bilan bir qatorda mahsulot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tizimlar ham keng qo'llaniladi. Jumladan, Food and Agriculture Organization [6] hamda World Health Organization tomonidan tavsiya etilgan HACCP Food Safety Management System oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va ularni nazorat qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar HACCP tizimini joriy etish oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini oshirish bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini ham yaxshilashini ko'rsatadi [7].

Sifat boshqaruvi tizimlarining iqtisodiy samaradorligi masalasi ham ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, sifat menejmenti tizimlarini joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi oshadi hamda mahsulot sifati barqarorlashadi. Natijada korxonalarning bozor raqobatbardoshligi oshib, eksport salohiyati kengayadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish masalasi muhim ilmiy yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoat korxonalarida xalqaro standartlar asosida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon mamlakat sanoat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oziq-ovqat sanoati mamlakat sanoat tarmoqlarining muhim qismini tashkil etib, ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish bo'yicha davlat siyosati ham faol amalga oshirilmoqda. Bu esa sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarining ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri iqtisodiy nuqtayi nazardan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar majmuasidan foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlarni o'rganish, taqqoslash, iqtisodiy tahlil va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini sanoat iqtisodiyoti, sifat menejmenti hamda ishlab chiqarish samaradorligini baholashga oid ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini barqaror ta'minlash hamda korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan mahsulot sifati, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi va resurslardan



foydalanish darajasiga bog'liq. Shu sababli korxonalarda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlari bilan bir qatorda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tizimlari ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, HACCP Food Safety Management System tizimi ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan biologik, kimyoviy va fizik xavflarni aniqlash va nazorat qilishga xizmat qiladi. Ushbu tizim Food and Agriculture Organization hamda World Health Organization tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. HACCP tizimini joriy etish ishlab chiqarish jarayonida xavflarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish orqali mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tarkibida sanoat korxonalarining ulushi¹

Bugungi kunda respublikada 56,3 mingta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 10,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 % i) Toshkent shahriga, 6,3 mingtasi (11,2 %) Toshkent viloyatiga, 5,7 mingtasi (10,1 %) Farg'ona viloyatiga, 4,8 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga va 4,4 mingtasi (7,8 %) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

2025-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 % va ishlab chiqarish hajmi 6 618,8 mlrd so'mga to'g'ri keldi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda 2021-2025 yillarda ichimlik ishlab chiqarish sanoati ko'rsatkichlari²

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan, fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2025-yil yanvar. www.stat.uz

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2025-yil yanvar. www.stat.uz

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon mamlakat sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat sanoat ishlab chiqarish hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish mamlakat sanoat ishlab chiqarishining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqning sanoat tarkibidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish oziq-ovqat sanoatining muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 281,9 mlrd so'mga to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakat oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda 2021-2025 yillarda ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi³

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlari aniq standartlar asosida tashkil etilib, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sifat nazorati amalga oshiriladi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xatolar va nuqsonlar kamayadi. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga va korxona rentabelligining oshishiga olib keladi.

Sifat boshqaruvi tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish imkonini ham yaratadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarining standartlashtirilishi xomashyo, energiya va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali korxona iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, sifat boshqaruvi tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarining shaffofligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etgan oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu esa korxonalarning ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish bilan birga ularning eksport salohiyatini ham kengaytiradi. Xalqaro bozorlarga chiqishda mahsulot sifati va xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlarga moslik muhim omil hisoblanadi. Shu sababli sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish korxonalarga xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sifat boshqaruvi tizimlari korxonalarda innovatsion rivojlanish uchun ham muhim sharoit yaratadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy takomillashtirish tamoyili asosida korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va mahsulot assortimentini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshib, sanoat tarmog'ining iqtisodiyotdagi ulushi ortadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish nafaqat mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga, balki mamlakat sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishiga

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2025-yil yanvar. www.stat.uz



ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon mamlakat sanoat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli oziq-ovqat sanoati korxonalarida zamonaviy sifat boshqaruvi tizimlarini keng joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish sanoat sektorining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini barqaror ta'minlash va sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sifat menejmenti tizimlari, jumladan, ISO 9001 va HACCP, ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifati nazoratini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, sifat boshqaruvi tizimlari joriy etilgan korxonalarda ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshgan.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini keng joriy etish va doimiy takomillashtirish, xususan, ISO 9001 va HACCP tizimlariga rioya qilish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlarida sifat monitoringini kuchaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik yangilanishlarni tatbiq etish.
3. Korxonalarda xodimlarni sifat menejmenti va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha muntazam o'qitish va malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish.
4. Davlat va hududiy darajada sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.

Ushbu choralar amalga oshirilganda, oziq-ovqat sanoati korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mahsulot sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashi, shuningdek, mamlakat sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Organization for Standardization ISO 9001:2015 Quality Management Systems <https://www.iso.org/standard/62085.html>
2. N.X.Yusupov. Ishlab chiqarishda sifat menejmenti tizimining ahamiyati va samaradorligi. *Vol. 2 No. 1 (2026): O'zbekistonda uchinchi renessans va innovatsion jarayonlar jurnali*. 84-b.
3. HACCP Food Safety Management System Food safety management system <https://www.fao.org/food-safety/en>
4. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan Sanoat statistikasi <https://stat.uz>
5. Terziovski, M. (2007). Quality management practices and their impact on manufacturing performance. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0924013606011769>
6. Food and Agriculture Organization Food safety management systems – HACCP <https://www.fao.org/food-safety/en>
7. World Health Organization Food safety management systems <https://www.who.int/health-topics/food-safety>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2025-yil yanvar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100